

XALQARO SPORT TASHKILOTLARI BILAN AMALIY HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni Butunjahon suzish federatsiyasi rahbari, Osiyo Olimpiya kengashi bosh direktori Husayn al-Musallam va Milliy olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti Shayx Jav’an bin Hamad Ol Soniyni qabul qildi.



Sport sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, olimpiya harakatini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda professional va ommaviy sportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar

yaratishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Uchrashuv avvalida Shayx Jav’an bin Hamad Ol Soniy O‘zbekiston yetakchisiga Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad

Ol Soniyning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Ushbu xalqaro sport tashkilotlari bilan amaliy hamkorlik yuksak darajaga ko‘tarilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.



Butunjahon suzish federatsiyasi bilan sheriklikni mustahkamlash, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekistonda suv sporti turlari uchun zamonaviy va

hammabop infratuzilma yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda yirik xalqaro musobaqalar, Osiyo Olimpiya kengashi Assambleyasi yig‘ilishi va Olimpiya

qo‘mitalari assotsiatsiyasining yirik tadbirlarini o‘tkazish masalalari ham muhokama qilindi.

O‘ZA

MAMLAKATIMIZDA EHTIYOIMAND OILALAR ALOHIDA E‘TIBORGA OLINIB, IJTIMOY QO‘LLAB-QUVVATLANMOQDA

Davlat rahbariga kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha axborot berildi.

Mamlakatimizda ehtiyojmand insonlar alohida e’tiborga olinib, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlanmoqda. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida bunday oilalarga bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarida ko‘maklashilmoqda. Shu bilan birga, bu juda keng va uzluksiz jarayon bo‘lib, doimiy takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, kambag‘al oilalarni ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab, uch toifada qo‘llab-quvvatlash taklif qilinmoqda.

Kam ta‘minlangan oilalarga 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat, yordam va imtiyozlar taqdim etiladi. “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritish tartib-taomillari qonunchilik hujjati darajasida belgilanadi. Ularni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejalar tasdiqlanib, manzilli xizmat va yordamlar ko‘rsatiladi. Bunday insonlar bandligini chekllovchi omillar bartaraf etilib, muayyan daromad topishiga sharoit yaratiladi.

▶ Davomi 2-betda

KADASTR XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH BO‘YICHA YANGI LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yer hisobini yuritish va kadastr xizmatini rivojlantirish bo‘yicha qilingan ishlar hamda kelgusidagi vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 45 million gektarga yaqin yer maydoni bor. 2021-yilgacha shundan bor-yo‘g‘i 1 million gektari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan edi. So‘nggi yillarda yagona tizim yaratilib, raqamlashtirish joriy etilgan natijasida 42 million gektar yer, ya’ni jami maydonlarning 94 foizi ro‘yxatdan o‘tkazildi. Jumladan, o‘rmon va suv fondi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘liq davlat ro‘yxatiga olindi. Transport, aloqa, geodeziya, energetika, yo‘l kabi 13 turdagi davlat kadastr bo‘yicha ma’lumotlar 100 foiz shakllandi. Yana 7 ta yo‘nalish bo‘yicha ishlar yakuniy bosqichda. Sohadagi eng dolzarb masala — ko‘chmas mulk munosabatlari tartibga solishdir. Shu maqsadda ko‘chmas mulklarning haqiqiyliги va ishonchligi davlat tomonidan

kafolatlanadigan yagona ma’lumotlar bazasi — UZKAD tizimi ishga tushirilgan. Barcha bino va inshootlar xatlovdan o‘tkazilib, unga kiritilmoqda. Hozirgacha 150 mingta turar va 707 mingta noturar joy, 44 mingta ko‘p qavatli uy haqidagi ma’lumotlar ushbu yangi tizimda aks ettirilgan. Yaqin-yaqingacha o‘z uyiga mulk huquqi bo‘lmagan uchun millionlab fuqarolar qiynalib kelardi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonuni bilan joriy yil yanvardan hujjatlarni rasmiylashtirib, egalariга taqdim etish boshlandi.

▶ Davomi 2-betda

“MOTURIDIYLIK — BAG‘RIKENGLIK, MO‘TADILLIK VA MA‘RIFAT TA‘LIMOTI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari, muhtaram mehmonlar!

Avvalo, siz, azizlarni ilm-ma’rifat va taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shgan O‘zbekiston zaminida, uning eng qadimiy shaharlaridan biri — azim Samarqandda buyuk alloma Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbindan samimiy muborakkob etaman.

Jonajon Vatanimizga, ulug‘ alloma va mutafakkirlar yurti bo‘lgan go‘zal Samarqand shahriga xush kelibsiz!

“Kalom ilmining sultoni”, “Musulmonlar e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lgan Imom Moturidiy o‘rta asrlarda — g‘oyaviy kurashlar avj olgan o‘ta murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ochib beradigan noyob ilmiy-ma’rifiy asarlar yaratgani, turli zararli oqimlar va jaholatga qarshi mardona kurash olib borgan, hech shubhasiz, chinakam ma’naviy jasorat namunasidir.

Buyuk vatandoshimiz asos solgan moturidiylik maktabi va ta’limoti esa e’tiqod borasida asrlar davomida bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat timsoli bo‘lib kelayotgani tahsinga sazovordir.

Bu o‘lmas ta’limot muqaddas dinimizning ezgu g‘oyalarni soxtalashtirish, ulardan

g‘arazli maqsadlarda foydalanishga qaratilgan buzg‘unchi harakatlar yangi shakllarda davom etayotgan bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib borayotganini, siz, hurmatli anjuman ishtirokchilari albatta yaxshi tushunasiz va biz buni yuksak qadrlaymiz.

Muhtaram do‘stlar!

Yangi O‘zbekistonda islom sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo‘shgan allomalarning ibratli hayot yo‘li va boy ilmiy-ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalarimiz nomlari bilan ataladigan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida ushbu ilmiy markazlar tomonidan Qur’oni karim va boshqa muqaddas diniy manbalarning xorijiy fondlarda saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalari topilib, ularning nusxalari yurtimizga olib kelingani, ilm va ma’rifat rivojiga begiyos hissa qo‘shgan ulug‘ zotlarning ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingani bu

sohada olib borilayotgan ishlar ko‘lamidan dalolat beradi. Jumladan, Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” va “Kitob at-tavhid” kitoblari ilk marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilganini ta’kidlash lozim.

Biz xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari, sizlar kabi musulmon olamida katta nufuzga ega bo‘lgan olimlar bilan hamkorlikda Imom Moturidiyning serqirra hayot yo‘li va ilmiy merosi, ushbu ta’limotning bugungi kundagi ahamiyatini yanada chuqur o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz.

Shu maqsadda Imom Moturidiyning 1155 yillik tavallud sanasini keng nishonlash haqida qaror qabul qilib, bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar, jumladan, ulug‘ mutafakkir bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini kengaytirib, yanada obod ziyoratgohga aylantirish bo‘yicha vazifalarni aniq belgilab oldik.

Ma’lumki, 2020-yilda Samarqand shahrida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya ishtirokchilarining taklifi asosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan edi.

Bugungi kunda buyuk ajdodimiz qoldirgan boy ilmiy-ma’rifiy merosning ahamiyati jahon

miqyosida tobora ortib borayotganini inobatga olib hamda ushbu Markazning maqomi va nufuzini yanada oshirish maqsadida, yaqinda imzolangan farmonga muvofiq, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Vazirlar Mahkamasi huzurida qayta tashkil etilganini alohida qayd etmoqchiman.

Ushbu markaz Imom Moturidiy hazratlarining islom dini ravnaqiga qo‘shgan bebaho hissasi va moturidiylik ta’limotini chuqur tadqiq etishda dunyoning turli mamlakatlaridagi olim va ulamolarni birlashtiradigan xalqaro platforma bo‘lib xizmat qiladi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, o‘z hayotini ana shunday ezgu ishga bag‘ishlab kelayotgan siz, azizlarga Imom Moturidiy va O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan boshqa ulug‘ allomalarimizning boy ilmiy-diniy merosini o‘rganish yo‘lidagi mashaqqatli mehnatingiz, izlanish va tadqiqotlaringiz uchun samimiy minnatdorlik bildirib, barchangizga sihat-salomatlik, kelgusi faoliyatingizda yangi yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI — XALQCHIL VA ADOLATLI BOSH HUJJAT

Bugun umumxalq ovoz berish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilingan referendumga roppa-rosa ikki yil to‘ldi.

Bu kun, hech shubhasiz, dunyo konstitutsiyaviy amaliyoti tarixida yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning samarasi ro‘yobga chiqqan — yangilangan xalqchil Konstitutsiya ma’qullangan siyosiy-huquqiy voqea — ahil xalqimizning qat’iy xohish-irodasi ifodalangan, noyob va muhim huquqiy hujjat qabul qilingan sana sifatida alohida e’tirof etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning chinakam tashabbuskori va muallifi xalqimizdir.



Tarixga nazar

Zamon va makon chig‘iriqlarida sinalgan konstitutsiyalar har bir davlatning bosh qonuni sifatida inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklarini kafolatlovchi, ijtimoiy tuzum negizi, davlat boshqaruvining shakli, tuzilishi, davlat hokimiyati organlari tashkil etilishi, vakolat chegaralari va munosabatlari asoslari belgilangan muhim hujjat sifatida shakllanadi.

Insoniyat ko‘p asrlar avval ham jamiyatda konstitutsiyaga monand bir asosiy hujjatga doim ehtiyoj sezgan. O‘sha hujjatga barcha fuqaroning itoat qilishi, jamiyat tinchligi, osoyishtaligi va ravnaqining muhim sharti deb qaralgan.

Mutafakkir Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Sohbiqiron Amir Temurning o‘z davrida muhim qo‘llanma bo‘lgan “Temur tuzuklari”da esa davlatning siyosiy faoliyatidagi yo‘l-yo‘riqlar aks etgan.

▶ Davomi 3-betda



Mamlakat hech qachon o‘z-o‘zidan rivojlanib qolmaydi. Ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan, barcha jahhda taraqqiyot sari intilayotgan davlatlarda jamiyatning umumiy saviyasi, insonlarning intellektual salohiyati, ayniqsa, ilmiy-ijodiy ziyolilarning sa’y-harakatlari, ijtimoiy faolligi alohida o‘rin tutadi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, sharqshunos olim, mohir pedagog va diplomat, iqtisodiyot fanlari doktori Rustam Sobirovich Qosimov (1955 — 2021) istiqlolning dastlabki yillaridan turtli mas’ul vazifa va lavozimlarda ishlab, ta’lim tizimini takomillashtirish, yuksak malakali kadrlar tayyorlash, millatlarni do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, diniy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, keksalar, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim davlat dasturlarini amalga

oshirishda boy bilim va tajribasi, yuksak salohiyatini safarbar etgan edi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Rustam Sobirovichni hurmatlab, o‘zining eng yaqin ko‘makchisi, maslahatgoh’yi deb bilardi. Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu zakiy va donishmand insonning ibratli hayot yo‘li, samarali ijtimoiy va siyosiy faoliyati, betakror fazilatlariga haqida zamondoshlari va yaqin do‘stlari, hamkasblari va shogirdlarining samimiy xotiralaridan iborat “**Rustam Qosimov zamondoshlari xotirasida**” kitobi nashrga tayyorlandi.

Quyida mazkur to‘plamdan o‘rin olgan yodnomalardan biri e’tiboringizga havola etilmoqda.

▶ Davomi 5-betda

MAMLAKATIMIZDA EHTIYOJMAND OILALAR ALOHIDA E’TIBORGA OLINIB, IJTIMOIIY QO‘LLAB- QUVVATLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Ehtiyojmand oila farzandlari maktabdagi uzaytirilgan kun guruhlari uchun to‘lovdan ozod qilinadi, a’lo bahoga o‘qiganlar oromgohlarda bepul dam olishi mumkin bo‘ladi. Kambag‘al oiladan chiqqan a’lochi talaba-qizlarga bazaviy stipendiyaning 2 baravari miqdorida maxsus stipendiya to‘lanadi.

Taqdimotda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash choralari haqida ham axborot berildi.

Unga ko‘ra, nogironligi bor insonlarni ishga olgan yengil sanoat korxonalariga soliq imtiyozlari berish, bunday xodimlar uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish, tadbirkorlarga Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi hisobidan 500 million so‘mgacha subsidiya ajratish kabi rag‘batlar ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, elektron savdo maydonchasi orqali nogironligi bor shaxslarga tegishli tovar va xizmatlarni xarid qilish miqdori oshiriladi. Ulariga kasb-hunar o‘rgatish uchun texnikumlarda inklyuziv ta’lim guruhlari tashkil etiladi.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish maqsadida “Faol hayotga qadam” dasturi joriy etiladi. Dastur doirasida ular uchun kunduzgi qatnov asosida yoki uyda qarab turish, maishiy yumushlarda ko‘maklashish, yo‘qotilgan harakat faolligini qayta tiklash, kasalliklarning oldini olish kabi tibbiy-ijtimoiy xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma’qullab, ularni tizimli yo‘lga qo‘yish va bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘za



Bugungi murakkab geoiqtisodiy sharoitda mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yaxshilash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, savdoni rivojlantirishda bojxona tizimining o‘rni, ya’ni qay darajada zamon bilan hamqadam ekani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tendensiyadan kelib chiqib, yurtimizda bojxona sohasi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Xususan, so‘nggi yillarda o‘nga yaqin davlat bilan oldindan axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. 4 ta yirik bojxona postida terminallar qurildi, 20 dan ziyodi yangi uskunalar bilan ta’minlandi. Tadbirkorlar uchun 35 ta axborot tizimi joriy qilinib, eksport jarayoni 9 bosqichdan 3 bosqichga tushirildi.

Natijada chegara orqali transportlar harakati 8 barobar ko‘payib, qariyb 5 milliontaga yetdi. Budjetga tushum 9 barobar o‘shib, 2024-yili 63 trillion so‘mdan oshdi. Yuklarni rasmiylashtirish vaqti importda 3 soat, eksportda 20 daqiqagacha qisqardi. Xalqaro logistika reytingida bojxona ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 140-o‘rindan 74-o‘ringa ko‘tarildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida O‘zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Ayni maqsadda mamlakatimizda transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni jalb qilish, yuk tashish bozorida sog‘lom raqobat muhitini yaratish borasida qator izchil chora-tadbirlar ko‘rib kelinmoqda.

— Mazkur farmonda milliy qonunchiligimizni JST va boshqa xalqaro tashkilotlar standartlariga muvofiqlashtirish ishlarini yakunlash, milliy bojxona imijini yanada yaxshilash, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, bojxona organlari uchun yangi avlod kadrlarini tayyorlash kabi qator muhim vazifalar belgilangan, — deydi Bojxona qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari G‘ayrat Nosirov. — Xususan, 2030-yilga qadar Jahon bankining “Logistika samaradorligi” indeksida (LPI) bojxona rasmiylashtiruvi samaradorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekistonning o‘rnini 55-pog‘onadan past bo‘lmagan darajaga ko‘tarish, keyingi yilga qadar deklaratsiyalarni inson omilisiz rasmiylashtiruv ulushini 2 barobarga oshirish maqsad qilinmoqda.

Shuningdek, 2028-yilga qadar

XAVFNI BOSHQARISH TIZIMI

CHEGARADAN O‘TISHDA AVTOTRANSPORT VOSITALARI UCHUN “YASHIL” VA “QIZIL” YO‘LAKLAR OCHILADI

Shu yil 1-maydan boshlab veterinariya va fitosanitariya sohasida tashqi savdo yuklariga tegishli har qanday hujjatlarga muhr va shtamp bosish hamda ularni yozma tarzda ro‘yxatga olish amaliyoti bekor qilinadi.

Ushbu yangi tartib davlatimiz rahbarining joriy yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni asosida amaliyotga tatbiq etilmoqda.

bojxona ko‘rigini 21 foizdan 15 foizga tushirish, 2030-yilgacha sun‘iy intellekt elementlaridan foydalangan holda xavfni boshqarish tizimi samaradorligini 2 barobar oshirish ham navbatdagi dolzarb vazifalardan.

Bugun dunyodagi barcha bojxona ma’muriyatining 60 foizdan ortig‘i faoliyatiga sun‘iy intellektni joriy etishga harakat qilmoqda. Chunki undan foydalanish operatsiyalarni tezlashtirish, xatolarni kamaytirish va savdo jarayonining erkin amalga oshishiga yordam beradi.

Qayd etganimizdek, farmonga binoan 2025-yil 1-maydan boshlab veterinariya va fitosanitariya sohasida tashqi savdo yuklariga tegishli har qanday hujjatlarga muhr va shtamp bosish hamda ularni yozma tarzda ro‘yxatga olish amaliyoti bekor qilinadi, barcha tartibot elektron shaklda tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

Bu, o‘z navbatida, tashqi faoliyat ishtirokchilari uchun katta imkoniyat yaratadi. Birinchi navbatda, jarayonga sarflanadigan vaqt qisqardi. Qolaversa, inson omili bilan qo‘lda qilinadigan amaliyotdan voz kechilib, raqamlashtirish ko‘lami kengayadi.

Shu bilan birga, 1-sentabrden boshlab tadbirkorlik subyektlariga bojxona to‘lovleri va bojxona rasmiylashtiruvi uchun boshqa turdagi to‘lovlarni mamlakatning istalgan hududidan amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun yagona g‘azna hisobvarag‘i ochiladi.

2025-yil 1-noyabrden boshlab o‘tkazish punktlari orqali harakatlanayotgan yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasining mobil ilovasi ishga tushiriladi. 1-dekabrden boshlab esa bojxona hududida yoki undan tashqarida qayta ishlash rejimlarida bojxona yuk deklaratsiyalarini soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish imkonini beruvchi “Tolling operatsiyalari” moduli amaliyotga joriy etiladi.

— “Tolling operatsiyalari” moduli biz uchun juda katta qulaylik, — deydi tadbirkor Davron Dadaxonov. — Bu savdo operatsiyalarini tezlashtirish, qayta ishlamoqchi bo‘lgan mahsulotimizni eksport bozoriga tezkor olib chiqish imkonini beradi. Masalan, mamlakatimizda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilib bo‘linganidan keyin qo‘shni davlatlar mahsulotini import qilib, uni qayta ishlash eksport qilish uchun bu tizim muhim ahamiyat kasb etadi. Farmonda biz, tadbirkorlar uchun qator qulaylik va imtiyozlar belgilangani kelgusida faoliyatimizni yanada kengaytirish, eng asosiysi, yangi ish o‘rinlari ochish va pirovardida iqtisodiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shishga rag‘batlantiradi.

Joriy yil 1-iyuldan boshlab Jahon savdo tashkilotining Savdo tartibotlarini soddalashtirish bitimi talablari asosida tovarlarga nisbatan imtiyozlar qo‘llash bo‘yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi joriy etiladi. 1-sentabrden esa “G‘ishtko‘pri”, “Zangiota” va “Daut-ata” o‘tkazish punktlarida sinov tariqasida avtotransport vositalari uchun ikki — “yashil yo‘lak” va “qizil yo‘lak”li xavflarni boshqarish tamoyillariga asoslangan davlat nazorat tartibotini qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Sinov natijalaridan kelib chiqib, ushbu amaliyot keyingi yil 1-sentabrden boshlab bosqichma-bosqich avtomobil yo‘li o‘tkazish punktlarida joriy etiladi.

Prezidentimizning “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida 2025-yilda bojxona sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. Bojxona organlari tashkiliy tuzilmalari faoliyatini qisqartirish, sohaga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, bojxona organlari axborot tizimlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish shular jumlasidan.

Bojxona organlaridagi shtat birliklari doirasida qator yangi tuzilmalar tashkil etiladi. Jumladan, “Bosh pochтамt” tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti negizida — elektron savdo maydonchalari orqali xarid qilinayotgan tovarlar va maxsus toifadagi yuklarni bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o‘tkazishga mo‘ljallangan “Elektron tijorat” tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, “Sirdaryo” chegara bojxona posti tarkibidagi “Oq oltin” va “Malik” bojxona punktlari negizida alohida “Oq oltin” va “Malik” chegara bojxona postlari hamda bojxona organlarining umumiy cheklangan shtatlar soni doirasida Bojxona qo‘mitasi tizimida alohida yuridik shaxs maqomiga ega Bojxona rasmiylashtiruvi markazi tashkil etiladi.

Qarordan sohaga oid ko‘plab yangiliklar o‘rin olgan. Xususan, Bojxona qo‘mitasi tarkibida sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga ixtisoslashgan sun‘iy intellekt texnologiyalarini tadqiq etish bo‘limi ochiladi.

Bojxona instituti tarkibida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hamda bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy asoslangan holda o‘rganishga ixtisoslashgan ilmiy markaz tashkil etiladi. 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab bojxona yo‘nalishida bakalavriatda dual ta’lim asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Magistraturada to‘lov-kontrakt asosida ta’lim muddati ikki yil bo‘lgan sirtqi ta’lim shakli joriy etiladi.

2025-yil 1-maydan chegara orqali harakatlanayotgan avtotransport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi. 1-oktabrden boshlab tovarlarni olib kirish, olib chiqish va tranzit olib o‘tish bo‘yicha barcha sertifikat, xulosa va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar faqat “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

Ushbu hujjatlar bojxona ma’muriyatchiligining shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan sifat jihatidan yangi tizim yaratish, faoliyatni yanada takomillashtirish bilan birga, bojxona sohasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Lutfulla XAYRULLAYEV,
jurnalist



BMT BOSH ASSAMBLEYASI O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN O‘RMONLARNI KO‘PAYTIRISH VA QAYTA TIKLASH BO‘YICHA HARAKATLAR DEKADASINI E’LON QILDI

Mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Doimiy vakolatxonasi ma’lumotiga ko‘ra, BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan “O‘rmonlarni barqaror boshqarish asosida o‘rmonlarni ko‘paytirish va qayta tiklash bo‘yicha harakatlar dekadasi” rezolyutsiyasini qabul qildi.

Rezolyutsiya Amazondan keyin dunyodagi ikkinchi eng katta tropik o‘rmonga ega bo‘lgan Kongo Respublikasi bilan birgalikda ilgari surildi.

Hujjat asosini Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qilari surilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili” davlat dasturi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi hamda “Markaziy Osiyoning “yashil” belbog‘i” — ko‘chat ekish aksiyasi tashkil etadi.

Hujjat O‘zbekiston tashabbusi bilan 2024-yil avgust oyida qabul qilingan Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oqchil yerlarda o‘rmonlarni barqaror boshqarish to‘g‘risidagi rezolyutsiya, shuningdek, ekologik konvensiya va BMTning O‘rmonlar bo‘yicha forumining muhim qarorlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Rezolyutsiyada 2027-2036-yillarni butun dunyo bo‘ylab o‘rmonlarni ko‘paytirish va qayta tiklash bo‘yicha harakatlar o‘n yilligi deb e’lon qilish to‘g‘risida ma’lum qilingan. O‘rmonlarni ko‘paytirish uchun kuch va resurslarni safarbar etishga chaqirildi. Barcha davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususi sektor va ilmiy hamjamiyatga Harakatlar o‘n yilligini to‘g‘ri

amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish tavsiya etildi.

Hujjatni 155 ta davlat delegatsiyalari qo‘llab-quvvatladi. Dunyoning barcha mintaqalaridagi 80 dan ortiq mamlakat hammuallif bo‘ldi.

Mamlakatlar O‘zbekiston tashabbusini o‘z vaqtida va ekologik muammolarni hal etishda dolzarbligini inobatga olgan holda olqishladi. Mutaxassislarning fikricha, rezolyutsiya Birlashgan

“

Hujjat asosini Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili” davlat dasturi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi hamda “Markaziy Osiyoning “yashil” belbog‘i” — ko‘chat ekish aksiyasi tashkil etadi.

Millatlar Tashkilotining iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, kambag‘allik, suv tanqisligi va qurg‘oqchilik kabi ko‘plab global muammolarga ekologik toza yechim topishga qaratilgan sa’y-harakatlariga ulkan hissa qo‘shadi.



harakatlarni kuchaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlari uchun samimiy minnatdorlik bildiramiz. Shuningdek, o‘rmonlarni barqaror boshqarish dinamik va rivojlanib borayotgan konsepsiya ekanligini tan olamiz. U o‘rmonlarning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini muvozanatlashda yordam beradi va shu orqali barqaror rivojlanishning barcha uch yo‘nalishiga hissa qo‘shadi. Shu munosabat bilan biz o‘rmonlar va boshqa ekotizimlarning salomatligi, hayotiyligi

Hujjatning Bosh Assambleyadagi taqdimoti chog‘ida Polsha vakili Yevropaning 27 ta davlati va YIga a’zo 6 ta nomzod davlat nomidan uni qo‘llab-quvvatlab, rasmiy bayonot berdi.

“Biz O‘zbekiston va Kongoga o‘rmonlarni saqlash va qayta tiklash bo‘yicha global

“Dunyo” AA
Nyu-York



“KODEKS ALIMENTARIUS”

EKSPORT MAHSULOTLARI IMPORT QILUVCHI MAMLAKATLAR TALABLARIGA JAVOB BERISHI KAFOLATI



Keyingi yillarda dunyoda geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy xatarlar o'sishi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar urchigan. Bu esa bizni ham sergaklantirib, xalqaro hamkorlikning yangi formatlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayni maqsadda joriy yilning 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti mintaqalarimiz o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berdi.

Sammit oldidan davlatimiz rahbari “Euronews”ga bergan eksiyluziv intervyusida “Markaziy Osiyo global transport zanjirlarining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Biz Transkaspiy va Transafg'on transport yo'llarini faol rivojlantiryapmiz — bu mamlakatlar jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu tarzda Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o'z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o'zaro ishonch va qo'shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi”, deya ta'kidladi.

Eng muhimi, mamlakatimizda qulay biznes muhiti izchillik bilan yaratilmoqda. Bozor institutlari rivojlantirilib, investitsiyaviy muhit yaxshilanmoqda. Bunda xorijiy investorlar uchun “yagona darcha” tizimi joriy etilgani, valyuta bozori liberalashtirilgani, biznes uchun soliq yuklari kamaytirilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizning qo'shni va xorij davlatlariga keng ochilishi, do'stona munosabatlarni mustahkamlab borayotgani o'zaro savdo aloqalari kengayishida ham namoyon bo'lmoqda. Raqamlar ko'rsatyaptiki, keyingi yillarda mamlakatimiz eksporti hajmi 2,2 barobar oshib, tashqi savdo aylanmasi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 57 foizga yetdi.

Jahon iqtisodiyotida o'zaro bog'liqlik kengayayotgan hozirgi sharoitda faol va jadal taraqqiy etayotgan O'zbekiston global iqtisodiy tebranishlar tufayli yuzaga kelayotgan turli murakkab masalalar va xatarlar bilan to'qnash kelishi tabiiy hol.

Jumladan, xomashyo narxlari o'zgaruvchanligi dunyo iqtisodiyotidagi inflyatsiya, geosiyosiy beqarorlik va logistika jarayonlaridagi uzilishlar har qanday davlatning ichki bozori, tashqi savdo faoliyati, aholi bandligi darajasi va investitsiyaviy jozibadorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozir dunyo avvalgidек emas. O'zgaruvchan munosabatlar, turli tarif va cheklovlar boshqa davlatlarga ham zanjirli ta'sir ko'rsatib, jahon iqtisodiyoti sekinlashishi va xalqaro savdo kamayishiga olib kelyapti.

Masalan, yuqori tariflar oqibatida xalqaro savdo hajmi 3,5 trillion dollarga qisqarib, dunyodagi inflyatsiya darajasi 7,5-8 foizga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda.

Bunday vaziyatda milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilash va amaliyotga tatbiq

etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar nafaqat profilaktik mexanizmlarni, balki asosiy tarmoqlarning moslashuvchanligini ta'minlovchi tizimli islohotlarni ham o'z ichiga oladi.

Dunyo amaliyoti ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligi, avvalo, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xomashyoga tayanadigan tarmoqlardan tashqari sohalarni rivojlantirish kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu esa tashqi ta'sirlarga bo'lgan qaramlikni kamaytirish va aholi daromadlari barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, strategik zaxiralarni shakllantirish va muhim tovarlarni, ayniqsa, agrosanoat va energetika sohalarida ichki ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.



bilan kirish uchun jiddiy savdo siyosatini yuritishi mumkinligi qayd etildi. Ya'ni mamlakatimiz kirib borgan ip-kalava, mato, gazlama, tayyor to'qimachilik va maishiy

ishbilarmonlar uchun eng qimmatli jihat — fursatni boy berishga sababchi bo'lyapti.

Shu kabi muammolar tahlili hamda ishblarmonlar takliflari asosida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish maqsadida joriy yilning 18-aprel kuni Prezidentimizning “Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Hujjatda texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, karantin idoralarining mahsulotga xulosa berish vakolatlarini aniqlash bo'yida takrorlanuvchi va ustma-ust tartiblar bosqichma-bosqich bekor qilindi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi nazorati bilan faqat Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi shug'ullanadi. Oziq-ovqat uchun texnik reglamentlar va standartlar majburiylik bekor qilindi.

Farmonga asosan, endi chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarning bo'xona qiymatini aniqlash tartibi to'liq xalqaro qoidalarga moslashtirildi.

“Kodeks alimentarius” nima?

Sertifikatlashtirish sohasida ilg'or xalqaro tajribani joriy etish oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, iste'molchilar ishonchini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon hamjamiyati e'tibor qaratadigan asosiy tizimlardan biri “kodeks alimentarius”

texnika bozorlarida ham ayovsiz raqobat bo'ladi.

Garvard universiteti tahliliga ko'ra, oxirgi besh yilda “iqtisodiy murakkablik indeksi”da O'zbekistonning o'rni 25 pog'ona yaxshilandi. Bugungi kunda 162 turdagi milliy mahsulotlarimiz “dunyo bozorida raqobat ustunligiga ega” deb e'tirof etilyapti.

Qayd etilganidek, bir hafta davomida mas'uliyatlar 3 mingga ziyor tadbirkor bilan uchrashdi. Ishbilarmonlar xalqaro bozorlardagi tebranishlarga moslashish uchun tezda hal qilish kerak bo'lgan yangidan yangi masalalarni qo'yimogda. Birgina misol, mineral suv ishlab chiqaruvchilar 45 ta ko'rsatkich bo'yicha xulosa olishi kerak. Tadbirkorlar shuning 43 tasi uchun Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tizimidagi laboratoriyalarga, qolgan 2 tasi bo'yicha boshqa laboratoriyalarga bormogda.

Qo'mitaga hamma tekshiruvni bir joyda tashkil etish topshirildi. Chunki bu amaliyot tadbirkorlar oyog'iga tushov bo'lib,



Islohot odimlari

“YIL YAKUNIGA QADAR MAHALLAMIZDA BIRORTA HAM KAMBAG'AL QOLMAYDI”

“Kambag'allikdan farovonlik sari” g'oyasi mamlakatimizdagi har bir xonadon, har bir oilaga yangi hayot nafasini olib kirmoqda. Masalan, To'rtko'l tumanidagi Markazobod mahallasida yashovchi Xurshida Kulumbetovaga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berilgan edi. Bugun u oyiga o'rtacha 4 million so'm daromad topyapti. Bu degani bir yilda qariyb 50 million so'm.

— Hokim yordamchisi sifatida ish boshlaganimdan beri odamlar orasidaman. Har kuni xonadonlarga kirib, muammolarni o'rganaman. Kinningdagi imkoniyatlar bor bo'lsa-da, ishlashni istamaydi. Boshqa yor nogironligi uchun xohlasa ham ishlolmaydi. Shu bois, “mahalla yetilligi” bilan birga mehnatga yaroqli aholi o'rtasida yaxshi daromad topish, farovon yashashga intilish, kasb-hunar o'rganish, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, tomorqadan foydalanish singari jihatlariga urg'u berypamiz. Kambag'al oilalar bilan mazzilli ishlab, ularga imtiyozli kredit va subsidiyalardan foydalanish madaniyatini o'rgatmoqdamiz, — deydi Markazobod mahallasidagi hokim yordamchisi Akmaljon Qo'chqorov. — Davlatimiz taqdim etayotgan imtiyozli kredit va subsidiyalarni olish bilan birga fuqarolar o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy farovonligini ta'minlashda mas'uliyat ham sezishi kerak, albatta. Afsuski, imkoniyatlardan samarali foydalanish borasida sustkashlik qilayotgan ayrim fuqarolar hali ham uchrab turadi. Ulami uyg'otish, faollikka undashni asosiy maqsadimiz qilib olganmiz.

Bir kuni hokim yordamchisi ana shunday odamlardan xafa bo'lib, navbatdagi xonadonga kirganida juda ta'sirli voqea ro'y berdi. Mahallada yashovchi nafaqaxo'r Malika Karimova taklif qilingan ko'makni qat'iy



Shu mahallada yashovchi Shohista Ro'zimboyeva ham “Ayollar daftari”da ro'yxatda turadi. To'y-hashamlar uchun sahna bezaklari tayyorlashga qiziqadi. Shuni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirdi. Mas'ullar unga zarur mablag' uchun tavsiyanoma berdi. Shu zarurda ishlab, ehtiyojmand oila vakili daromadli ish o'rni ga ega bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullana boshladi.

ish boshlashi uchun 5 million so'mlik imtiyozli kredit ajratib berildi.

Hududdagi “POLAT SHAROF SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tikuvchilik va to'qimachilik yo'nalishini rivojlantirishi uchun “Agrobank”ning tuman filialidan 100 million so'm miqdorida imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatilishi natijasida 3 ta ish o'rni ochildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish borasida aholi muayyan tajribaga ega. Chunki hududning o'sish nuqtasi — xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik. Mahalla ahli ushbu drayver sohalardan oqilona foydalanib, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga hissa qo'shmoqda. Misol uchun, 2024-yilda ishsizlar 53 kishi edi. Ayni paytga kelib, ushbu raqam teng yarmiga qisqardi. Bu yil ishsiz xotin-qizlarning 11 nafari tadbirkorlikni boshladi. 10 nafari doimiy ish o'rni ga joylashtirilgan.

Aholi orasida imtiyozlardan samarali foydalanayotganlar talaygina. Birgina 2025-yilning o'tgan davri maboyinda hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan Markazobod mahallasida yashovchi 7 fuqaroga imtiyozli kreditlar berilgan. 26 yigit-qizning tashabbusi qo'llab-quvvatlangan. Qolaversa, 4 ta oilaning oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan farzandi o'qishi uchun to'lov-shartnoma puli to'lab berilgan.



— Eng muhimi, joriy yilning o'tgan davrida 14 kishining bandligi ta'minlandi. Kasb-hunar o'rganishi uchun 12 ayol va yigit-qizga tavsiyanoma berildi. Hududdagi tadbirkorlar, ishblarmonlar bilan ko'proq muloqot qilinmoqda. Shu bilan birga, tomorqadan samarali foydalanish madaniyatini oshirish

ham e'tiborimiz markazida, — deydi Akmaljon Qo'chqorov. — Joriy yilda ilk marotaba “kambag'al oilalar portreti”ni yaratishga kirishdik. Bu borada mahallamizda 22 ta oila tanlab olindi. Endi bu oilalarni kambag'allikdan olib chiqish chorasini izlayapmiz. Eng avvalo, ular bandligini ta'minlaymiz, kasb-hunarga yo'naltiramiz, imtiyozli kredit asosida tadbirkorlik boshlashiga ko'maklashamiz. Sa'y-harakatlarimiz bilan yil yakuniga qadar mahallamizda birotta kambag'al oila qolmaydi. Shu bilan birga, hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasligiga birgalikda erishmoqchimiz. Ayniqsa, bu yerda yashovchi nogironligi bo'lgan 93 shaxs, boquvchisini yo'qotgan 26 ta oila, yakka-yolg'iz 1 qariyani qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni kuchaytiramiz. Ularga sifati ijtimoiy xizmat ko'rsatamiz.

Odamlarda imkoniyatlardan ko'proq foydalanish istagi uyg'onmoqda. Mehnatga yaroqli aholi o'rtasida yaxshi daromad olish, yaxshi yashashga intilish, kasb-hunar o'rganish, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, tomorqadan samarali foydalanish harakatida jonlanish sezilmoqda. To'rtko'l tumanidagi Markazobod mahallasidagi 162 fuqaro migratsiya asosida chet elga ishlashga ketgani aniqlangandi. O'tgan davrda “mahalla yetilligi” ular bilan doimiy muloqot o'rnatdi. Natijada migratsiyada yurgan vatandoshlarimizning 75 nafari uyiga qaytdi. O'ziga munosib ish bilan ta'minlanib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlandi.

Qisqasi, kambag'allikni qisqartirish, aholini band qilish yo'lida To'rtko'l tumani Markazobod mahallasidagi amaliy sa'y-harakatlar boshqa mahallalar uchun ham o'mak bo'layotir.

**Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri**



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Boshlanishi 1-betda

Mashhur adib va tarjimon, ustozimiz Nosir Fozilovning umr shomida bitgan xotiralar kitobi “Eslasam, ko’ngling yorishur” deb atalar edi. Adabiyot va san’atimizning nurli siymolarini yod etishga bag’ishlangan ushbu to’plamni men ham katta e’tibor va qiziqish bilan mutolaa qilgan, ayniqsa, uning o’ziga xos ta’sirli nomi qalbmida o’chmas iz qoldirgan edi.

Bugun taniqli davlat arbobi, sharqshunos olim, mohir pedagog va diplomat Rustam Sobirovich Qosimov haqidagi xotira so’zlarini bitar ekanman, yuqorida eslangan kitob nomidan ilhomlanib, yodnomaga shunday sarlavha qo’yishni joiz, deb bildim.

Darhaqiqat, rahmatli Rustam aka el-yurt tinchligi va ravnaqi yo’lida o’zini ayamay, fidokorona xizmat qilgan samimiy va kamtarin inson, sadoqatli do’st, mehribon ustoz sifatida u kishini tanigan, bilgan barcha odamning yuragidan chuqur o’rin egallagan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat boshqaruviga bu sohada muayyan tajribaga ega eski partiya va sovet xodimlari bilan birga oliy va ijodiy ziyolilarning ko’plab yosh namoyandalari ham jalb etildi. Kasb-kori, millati va tili, bilimi va qobiliyat darajasida muayyan tafovut bo’lsa-da, bu yosh kadrlarning barchasini milliy istiqlolga sadoqat, dunyo xaritasida yangi paydo bo’lgan mustaqil va suveren O’zbekiston Respublikasiga siqdildidan xizmat qilishdek yuksak orzu-intilish birlashtirib turardi. Ana shunday insonlar orasida o’sha paytda Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida o’qituvchi, dotsent va dekan, keyinchalik esa Toshkent davlat texnika universitetida biznesi boshqarish fakulteti dekani lavozimlarida ishlagan Rustam Qosimov ham bor edi.

Garchi biz u kishi bilan universitetda bir davrda (1973-1978-yillarda) tahsil olgan bo’lsak ham fakultetlarimiz boshqa-boshqa bo’lgani uchun o’zaro tanish emas edik. Men Rustam Sobirovichni o’zim davlat xizmatiga kelgan 1993-yildan tanib boshladim.

Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun yangi avlod kadrlari — mustaqil fikrlaydigan, xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan xodimlarga katta ehtiyoj mavjud edi. Shu sababli ikkinchi mutaxasssiligiga ko’ra iqtisodchi olim bo’lgan Rustam Qosimov 1997-2000-yillarda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida yangi tashkil etilgan Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrası mudiri, fakultet dekani lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Bunda u kishining 1976-1981-yillarda Iroq va Suriya kabi xorijiy mamlakatlarda qizilab qilib, tajriba orttirgani ham inobatga olingani tabiiy.

2000-yillarga kelib, Rustam Qosimov faoliyatida yangi davr boshlandi. Bu paytda u oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o’rinbosari, Bank-moliya akademiyasi rektori, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori, Tashqi ishlar vaziri o’rinbosari, oliy va o’rta maxsus ta’lim vaziri, Bosh vazir o’rinbosari lavozimlarida qizg’in va samarali mehnat qildi. Bir so’z bilan aytganda, yangidan oyoqqa qo’yish, tartibga solish lozim bo’lgan eng og’ir sohalariga “tashlandi”.

Mening u kishi to’g’risidagi ko’plab xotiralarim ayni shu davrga to’g’ri keladi. Xizmat taqozosi tufayli bu ajoyib inson bilan juda dolzarb va qaynoq jarayonlar, loyihalarda birga ishtirok etish nasib etdi. Milliy istiqlol g’oyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, madaniyat va san’at, ta’lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, Mustaqillik, Konstitutsiya, Navro’z bayramlari va boshqa ommaviy davlat tadbirlarini, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, Universiada kabi respublika sport musobaqalarini, “Sharq taronalari” singari xalqaro festivallarni yuqori saviyada o’tkazish borasida yelkama-yelka turib mehnat qildik.

Ish jarayonida goho o’ta murakkab masalalar, ziddiyatli holatlar ham vujudga kelishi sir emas. Shunday vaziyatlarda Rustam Sobirovich ularning barchasini tabiatiga xos bo’lgan yuksak madaniyat, vazminlik va bosiqlik, xushmuomala bilan hal etishga intilar edi. U kishining kimdadir baland tovushda qo’pol munosabatda bo’lgani, qo’l ostidagi xodimlarning sha’nini yerga uradigan xatti-harakatlarga yo’l qo’yganini ko’rgan emasman. Har qanday keskin bahs-munozarada ham hamsuhbatlari va muxoliflariga qarab murojaat qilganida — ular talaba yoki akademikmi, yuqori martabali amaldor yoki oddiy odammi — “agar ijorat etsangiz”, deb so’z boshlar va shu fazilati bilan ko’ngillarni o’ziga rom qilar edi.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohalarni taraqqiy ettirishga butun borlig’ini bag’ishlagan Rustam Qosimov taniqli ilm-fan, madaniyat va adabiyot vakillari bilan yaqin do’st edi. Ularning iste’dodi va ijodini hamisha qadrlar, qo’lidan kelganicha qo’llab-quvvatlardi.

Ayni vaqtda u xalq va davlat manfaatiga daxldor bo’lgan eng muhim masalalarda hamisha adolat va qonun tarafiga, prinsipial pozitsiyada turar edi.

Men bu insonning intellektual va ma’naviy salohiyati nihoyatda keng ekaniga, nafaqat milliy, balki jahon madaniyati va tarixini, falsafa va estetika, dinlar va millatlararo munosabatlar masalalarini chuqur bilishiga tan berardim. Rustam aka mamlakatimiz hamda xorijda bo’lib o’tadigan turli uchrashuv va anjumanlar, xalqaro konferensiya va festivallarda ingliz, arab va rus tillarida erkin mulotot qilish, ma’ruzalar o’qish iqtidoriga ega, muxtasar aytganda, har tomonlama yetuk o’zbek ziyolisining yorqin timsoli edi.

Shu o’rinda bir misol keltirmoqchiman. Ma’lumki, mumtoz she’riyatimizda aruz vazni yetakchi o’rin egallaydi. Bu adabiy janr dastlab Arabiston yarimorolida paydo bo’lib, yurtimizga islom dini bilan birga kirib kelganini bilsak-da, uning yaratilish tarixi ko’pchilikka qorong’i. Aruzning turli vazn o’lchovlari karvonda odimlab borayotgan tuyalarining qadim tashlashiga hamohang ekanı, aynan shu holat qadimgi sahra shoirlariga ilhom berib, ijodiga kuchli ta’sir o’tkazgani to’g’risida men birinchi marta Rustam akadan eshitgan edim.

O’rni kelganida bu fidoyi inson bilan ko’p yillar hamkorlikda ishlab, uning tavallud ayyomini biror marta birgalikda nishonlash nasib qilmaganini bugun afsuslanib eslayman. Chunki u kishining tug’ilgan kuni 30-avgust sanasida edi. Bu paytda davlat xizmatchilari, ayniqsa, yuqori lavozimdagi mas’ul xodimlar uchun eng dolzarb palla boshlanar — barchamiz Mustaqillik bayramiga qizg’in tayyorgarlik ishlari bilan band bo’lardik. Shu bois, Rustam Qosimovning tug’ilgan kuni ko’pincha bayram bo’ladigan maydonda yoki viloyatlarda birov bilib, birov bilmay o’tib ketar edi. Mana shu fakt ham bu shaxsning hayot yo’li istiqloimiz tarixi bilan chambarchas bog’liq holda kechganini ko’rsatadi.

Albatta, Rustam akaning hayotda munosib o’rin topishi, mashaqqatli va samarali mehnati bilan el-yurt hurmatini qozonishida u tug’ilib voyaga yetgan ziyoli oianing, xonadondagi ma’naviy muhitning katta o’rni bor. Otasi — uzoq yillar Toshkent xalq xo’jaligi institutida domlalik qilgan taniqli olim Sobir Qosimov o’z davridagi qiyinchiliklarga qaramay, besh farzandining barchasiga to’g’ri ta’lim-tarbiya bergan mo’tabar zot edi. Bolalarining oliy ma’lumot olishi, ilmiy faoliyat bilan shug’ullanib, yetuk mutaxassis bo’lib yetishishida padari buzrukvorning o’rni beqiyos. Rustam akaning oqila onasi Muhabbat Qosimova esa bu borada oila boshlig’iga hamisha tayanch bo’lib kelganini ko’pchilik yaxshi biladi.



opamizdan, ham Rustam Sobirovichdan go’zal bir esdalik bo’lib qoldi.

Suyima opaning keksalik va bemorlik chog’larida Rustam Qosimov u kishining holidan doimo xabar olib, yordam va ko’mak ko’rsatib turdi. Dafn marosimi va ma’rakalariga bosh-qosh bo’ldi.

Do’stimizning ilm va ijod ahliga, madadga muhtoj turli insonlarga e’tibori va g’amxo’rligi haqida bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Hammamizga ma’lumki, insonning hayot yo’li doim ham ravon va silliq kechmaydi, unda har xil kutilmagan, past-baland holatlar uchrab turadi. Rustam Qosimov ham faoliyati davomida shu kabi sinovlarga duch keldi. U 2011-yildan kasaba uyushmalari tizimida faoliyat yuritdi. Lekin o’zining mustahkam irodasi, insoniy fazilatları sababli tushkunlikka tushmadi, avvalgidek g’ayrat-shijoat bilan xizmat qilishda davom etdi.

Mana shunday murakkab davrda muhtaram Prezidentimiz, o’sha paytda Bosh vazir lavozimida ishlagan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Rustam Qosimovni hamisha qo’llab-quvvatlab turdi. Ijtimoiy jarayonlardan chetda qolishiga yo’l qo’y-madi. Hukumat rahbarining vakili sifatida markazda va joylarda turli topshiriqlarni bajarish, jumladan, ommaviy tadbirlarni o’tkazish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkilatlashiga safarbar qilib, fikr-mulohazalari, tajribasini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

2016-yil oxirida Rustam Sobirovich yana qizg’in ijtimoiy faoliyatga qaytdi. Mamlakatimizda boshlangan keng ko’lamli islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Zero, yangi O’zbekistoni barpo etish bilan bog’liq

Men bu insonning intellektual va ma’naviy salohiyati nihoyatda keng ekaniga, nafaqat milliy, balki jahon madaniyati va tarixini, falsafa va estetika, dinlar va millatlararo munosabatlar masalalarini chuqur bilishiga tan berardim. Rustam aka mamlakatimiz hamda xorijda bo’lib o’tadigan turli uchrashuv va anjumanlar, xalqaro konferensiya va festivallarda ingliz, arab va rus tillarida erkin mulotot qilish, ma’ruzalar o’qish iqtidoriga ega, muxtasar aytganda, har tomonlama yetuk o’zbek ziyolisining yorqin timsoli edi.

ezgu va ulug’vor maqsadlar u kabi fidoyi, bilimdon va tashabbuskor kadrlar salohiyatidan unumli foydalanish, ularga keng yo’l ochib berishni taqozo etardi. Shu bois, Rustam Qosimov oliy va o’rta maxsus ta’lim vaziri etib tayinlangani to’g’risidagi xabar ko’pchilikni quvontirdi. Keyingi yillarda esa Rustam aka O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o’rinbosari, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, Prezidentning Davlat maslahatchisi, Prezidentning jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo’yicha maslahatchisi, O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori kabi mas’uliyatli lavozimlarda hormay-tolmay, jo’shqin mehnat qildi.

Afsuski, 2021-yilda — “COVID-19” pandemiyasi avjiga chiqqan payt u kishi ham shu muhdish kasallik bilan og’rib, ko’rilgan barcha chora-tadbirlar, tibbiy muolajalarga qaramay, 66 yoshida olamdan o’tdi. Rustam Sobirovichning vafoti barcha qayrindoshlari, do’stu birodarlari, hamkasblari, yuzlab shogirdlari, mamlakatimiz jamoatchiligini chuqur qayg’uga soldi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barchamizga bosh bo’lib ta’ziya marosimida ishtirok etib, Rustam akaning oila a’zolari va yaqinlariga hamdardlik va taskin bildirar ekan, jumladan, bunday deb ta’kidladi:

“Rustam Sobirovich Qosimov timsolida biz Vatanga sadoqatli, fidoyi, aqlli, millatimizning yetuk ziyolisidan judo bo’ldik. Biz juda ko’p yillar birga ishlaganimiz, og’ir kunlarni ham boshimizdan o’tkazganimiz. Hozir har menga eng katta yordamchi, maslahatgo’y edi. Ilohim, joylari jannatda bo’lsin. Ishlarini farzandlari davom ettirsin”.

Albatta, o’lim haq. Vaqt-soati kelganida hammamiz ham bu yorug’ dunyoni tark etamiz. Lekin odamning ortidan yaxshi nom, ezgu amallar, solih farzandlar, yetuk shogirdlar qoladigan bo’lsa, vafotidan keyin uning ikkinchi umri boshlanishi ham barchamizga ayon. Chunki minglab qalbda ilm-ma’rifat va oiljanoblik chirog’ini yoqib ketgan Rustam akadan, eslasang ko’ngil yorishadigan insonlar xotirasi hech qachon o’chmaydi.

Shu ma’noda, xalqimizning yetuk farzandi Rustam Sobirovich Qosimovning sharaflı umr yo’li bugun ham davom etmoqda, desak, o’ylaymanki, adashmagan bo’lamiz.

Xayriddin SULTONOV

XORIILIK YOSHLAR TA’LIM UCHUN NEGA O’ZBEKISTONNI TANLAYAPTI?



Ta’lim endi nafaqat bilim olish, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, uning moliyaviy barqarorlik, innovatsion salohiyat va investitsiyalarni jalb qilish darajasi har qachongidan ham dolzarb. Shaxsan davlatimiz rahbarining o’zi ilmiy va madaniy faoliyatni investitsion muhit bilan uyg’unlashtirish zarurligini ko’p bora qayd etishi bejiz emas.



Nozliya NORMURODOVA, filologiya fanlari doktori, professor

hamkorligi, xalqaro grantlar, tijoratlashtirish, investitsiya salohiyatini yuksaltirish va global hamkorlik kabi yo’nalishlar muhim. Masalan, Germaniya va Yaponiyada universitetlar o’z ilmiy va texnologik tadqiqotlarini tijoratlashtirish orqali innovatsion mahsulotlar yaratadi. Ya’ni universitetlar texnologiya transferi ofislarini ochib, yangi texnologiyalarni kompaniyalarga sotadi yoki litsenziyalaydi. Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya) o’z oliy ta’lim tizimlarini xalqaro miqyosda tanitib, yuqori darajadagi ilmiy tadqiqotlar va ta’lim sifatini ta’minlaydi. Bu davlatlardagi universitetlar o’z tadqiqotlari hamda dasturlari uchun xalqaro mablag’lar va grantlar oladi.

Mamlakatimiz sharoitida ham yuqoridagi tajribalarning uyg’unlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda dastlabki bosqichda jozibador ta’lim yo’nalishlari va shakllarini taklif etish orqali ta’lim eksportini jadallashtirish

maqsad qilingan. Natijada esa mahalliy oliy ta’lim muassasalariga xorijlik talabalarni jalb qilish imkoniyatlari tobora kengayib borayotir. So’nggi yillarda O’zbekistonda ingliz tilidagi dasturlar soni ortib, xorijlik professor-o’qituvchilarni jalb qilish, ikki diplomli dasturlarni yo’lga qo’yish, xalqaro akkreditatsiyadan o’tish kabi tashabbuslar chet ellardan talabalar oqimini jalb qilishda muhim omillarga aylanayapti. Bu esa oliy ta’lim muassasalari uchun nafaqat moliyaviy, balki madaniy va akademik diversifikatsiya imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, ayni sohada siyosiy iroda va tizimli yondashuv mavjudligi ham juda muhim. So’nggi yillarda oliy ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish, universitetlarga akademik mustaqillik berish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish bo’yicha qabul qilinayotgan qarorlar bunga yaqqol misol. Buning natijasida esa, ko’rib turganimizdek, O’zbekistonda xorijlik talabalar oqimi yil sayin ortib bormoqda. Albatta, xorijlik talabalarni jalb qilish faqatgina iqtisodiy manfaat emas, ko’p jihatdan ijtimoiy va siyosiy yutuq hamdir. Hukumat tomonidan bu sohada qat’iy siyosiy iroda ko’rsatilayotgani ham bejiz emas. Viza soddalashtirilishi, xorijlik talabalarga qulay sharoitlar yaratish, xalqaro ko’rgazmalarda O’zbekiston ta’lim salohiyatining faol targ’ib qilinishi natijasida mamlakatimiz bugun xalqaro ta’lim makonining muhim ishtirokchisiga aylanayapti.

Yana bir muhim jihat — ta’lim narxi nisbatan arzonligi. Yevropa yoki AQSHdagi universitetlar bilan solishtirganda, O’zbekistonda oliy ta’limni ancha qulay sharoitlarda olish mumkin. Ayniqsa, Markaziy va Janubiy Osiyo, Afrika davlatlaridan kelayotgan talabalar uchun bu katta imkoniyat sifatida baholanyapti. Shu bilan birga, yurtimizdagi madaniy, diniy va



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ijtimoiy muhitning ular mentalitetiga yaqinligi, hayot tarzimizdagi mehmondo’shtlik ularni yurtimizga jalb qilayotgan yana bir omildir. Xorijlik yoshlarning aynan bizdagi ta’lim muassasalarini tanlashi mamlakat imijiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ammo bu hali jarayonning boshlanishi, negaki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasaları oldida yana bir muhim vazifa turibdi — bu xalqaro grantlar, fondlar va donor tashkilotlar bilan samarali ishlashdir.

Zamonaviy dunyo — keng imkoniyatlar maydoni. Bu maydonda kim faol, kim izlanuvchan, kim ochiq va tashabbuskor bo’lsa, aynan o’sha g’olib. Ayniqsa, ta’lim sohasida.

Chunki bugun bilim — eng qimmat kapital, universitetlar esa bu kapitalni ishlab chiqaruvchi asosiy manbaga aylanmoqda. Ammo bu jarayonda bir jihat muhim: o’z kuchingni dunyoga ko’rsatish, imkoniyatlarni ilg’ash va shu orqali xalqaro grantlarni qo’lga kiritish. Xalqaro grantlar nafaqat moliya, qolaversa, ishonch, e’tibor va global hamkorlik eshigi. Ular orqali universitetlar yangi ilmiy laboratoriyalar quradi, zamonaviy uskunalar xarid qiladi, professor-o’qituvchilar va talabalarni xorijda malaka oshirishga yuboradi, startap loyihalarni ishga tushiradi. Bir so’z bilan aytganda, grantlar orzularni reallikka aylantiruvchi vositadir.

Bugun dunyoning ko’plab nufuzli donor tashkilotlari — Yevropa Ittifoqi, Erasmus+, DAAD, USAID, JICA, KOICA, Chevening, Fulbright, UNESCO, Visegrad kabi fondlar har yili millionlab dollar mablag’ ajratadi. Ular ijtimoiy tenglik, inklyuziv ta’lim, innovatsion tadqiqotlar, ekologik barqarorlik, raqamli transformatsiya va boshqa dolzarb sohalarga investitsiya qilishga tayyor. Ayni shu o’rinda O’zbekistonning ustun jihatları namoyon bo’ladi. Ammo bu imkoniyatdan foydalana olish uchun har bir universitet o’z strategiyasiga ega bo’lishi lozim. Grant yozishni biladigan, donorlar bilan mulotot madaniyatiga ega, maqsadini aniq belgilay oladigan, natijaga ishlaydigan jamoa bo’lishi kerak. Grant so’rash faqat ariza topshirish emas, bu o’zining ishonchli hamkor, ochiq va shaffof institut, innovatsiyalarni amalga oshira oladigan muassasa ekanini isbotlash demakdir. Bunday yondashuv allaqachon samara bermoqda.

Qolaversa, grant jalb qilish bir martalik emas, doimiy izlanishni talab qiladigan, o’zini takomillashtirib boradigan jarayon. Shuning uchun O’zbekistonda grant menejmenti bo’yicha mutaxassislar tayyorlash, universitetlarda alohida grant bo’limlari tashkil etish, xalqaro hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish va eng muhimi, bu ishga ishonch bilan yondashish juda muhim. Chunki grantlar, yuqorida ta’kidlanganidek, faqat moddiy manfaat emas, dunyo bilan bog’laydigan ko’prikl, bilimlar chegarasini kengaytiradigan imkoniyat. O’zbekistondagi har bir universitet, har bir ilmiy markaz hamda tashabbuskor olim dunyoga kuzatuvchi bo’lib emas, faol hamkor sifatida kirib borishga tayyor. Shuningdek, chet el universitetlari bilan hamkorlik, yangi ilmiy tadqiqotlar va o’quv dasturlar yaratish o’zbek universitetlarini global miqyosda tanitadi. Bunday hamkorliklar orqali O’zbekiston oliy ta’limi dunyo ta’lim bozorida o’z o’rnini yanada mustahkamlashi mumkin.

Yurtimizning oliy ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb qilish faqat universitetlarning emas, balki butun jamiyatning yutug’i. Har qanday yutuq esa kichik tashabbusdan boshlanadi, har bir tashabbus esa ishonchdan. Bugun O’zbekiston aynan ana shu ishonch va yigilanish ruhi bilan dadil ilgari layapti. Shu bois, bu yurtda nafaqat bilim, balki kelajak uchun mustahkam poydevor barpo qilinmoqda.

